

OLIY TA’LIMDA AKADEMİK ERKINLIK TAMOYILLARINI AMALGA OSHIRISH MEXANIZMLARI VA NATIJALARİ

Ismoilova Muhayyoxon Xabibullayevna

Annotatsiya: *Ushbu maqolada oliy ta’lim tizimida akademik erkinlik tamoyillarining mazmuni, ularni joriy etishning asosiy mexanizmlari, amaliy tajribasi va erishilgan natijalar tahlil qilinadi. Universitetlarning avtonomligi, o’quv rejalarini va dasturlarni shakllantirishdagi erkinligi, xalqaro ta’lim standartlariga integratsiyalashuvi orqali akademik mustaqillikning samaralari ko’rib chiqilgan. Shu bilan birga, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo’llari to’g’risida so’z yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: Akademik erkinlik, oliy ta’lim, universitet avtonomiysi, ta’lim sifati, ilmiy tadqiqot, ta’lim islohotlari, mustaqil ta’lim, innovatsion yondashuv.

Bugungi globallashuv va raqobat sharoitida oliy ta’lim tizimining sifatini oshirish, uning xalqaro standartlarga mosligini ta’minlash dolzarb masalalardan biridir. Bu borada akademik erkinlik tamoyillarini joriy etish, universitetlarning ilmiy, ma’muriy va moliyaviy mustaqilligini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Akademik erkinlik o’qituvchi va talabalarga mustaqil fikr yuritish, tadqiqot olib borish, o’quv rejalarini va fanlar mazmunini belgilashda erkinlik beradi. Ushbu maqolada akademik erkinlikni amalga oshirishda qo’llanilayotgan asosiy mexanizmlar, amaliy yondashuvlar va erishilgan natijalar tahlil qilinadi.

Oliy ta’lim tizimida akademik erkinlikni ta’minlash bir qator omillarga bog’liq bo‘lib, ularning asosiyalaridan biri oliy ta’lim muassasalarining avtonomligini kengaytirish hisoblanadi. So’nggi yillarda mamlakatimizda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, xususan, “Ta’lim to’g’risida”gi qonun va “Oliy ta’limni rivojlantirish strategiyasi”da akademik erkinlik konsepsiysi asosiy yo’nalishlardan biri sifatida belgilangan. Universitetlarga o’z o’quv rejalarini va dasturlarini shakllantirish huquqining berilishi, darslik va o’quv qo’llanmalarini tanlashda mustaqillik, xalqaro reyting tizimlarida ishtirok etish erkinligi ushbu jarayonning asosiy ko’rinishlaridandir. Shu bilan birga, pedagog kadrlarning malaka oshirish tizimining takomillashtirilishi, akademik almashinuv dasturlarining kengaytirilishi ham erkinlikni ta’minlashda muhim rol o’ynaydi.

Tahlillar shuni ko’rsatadiki, akademik erkinlik tamoyillarini joriy etish natijasida oliy ta’lim muassasalarida o’qitish sifati oshmoqda, talabalarning tanqidiy fikrlash, tahlil qilish va amaliy ko’nikmalarini shakllantirish imkoniyatlari kengaymoqda. Ilmiy-tadqiqot faoliyatining faollashuvi, nashrlar soni va ilmiy loyihalarning ortishi bu boradagi ijobiy natijalardandir. Shu bilan birga, ushbu tamoyilni amalga oshirishda ayrim muammolar ham mavjud bo‘lib, ularni bartaraf etish uchun tizimli yondashuv zarur. Jumladan, barcha oliy ta’lim muassasalarida erkinlik darajasining teng bo‘lmasligi, infratuzilmaviy cheklovlar,

o‘quv jarayonini baholash mezonlarining yetarlicha takomillashmaganligi kabi omillar mavjud.

Akademik erkinlikni joriy etishda xorijiy tajriba

Akademik erkinlikning muvaffaqiyatli amalga oshirilgan tajribalari, xususan, AQSh, Germaniya, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya kabi davlatlarning oliy ta’lim tizimlarida keng kuzatiladi. Masalan, AQSh universitetlari o‘z o‘quv dasturlarini mustaqil ravishda ishlab chiqadi, professor-o‘qituvchilar o‘z pedagogik uslublarini tanlashda erkindirlar. Germaniyada esa universitetlar o‘z byudjetlarini shakllantirish va taqsimlashda mustaqil bo‘lib, davlat faqat umumiy strategik yo‘nalishni belgilaydi. Bu tajribalarning umumiy jihat – ta’limda innovatsiyalarni rag‘batlantirish, ilmiy izlanishlarga erkin sharoit yaratish va mehnat bozoriga mos kadrlar tayyorlashdir.

O‘zbekiston oliy ta’lim tizimi ham so‘nggi yillarda ushbu tajribalarni bosqichma-bosqich joriy etmoqda. Jumladan, kredit-modul tizimiga o‘tish, oliy ta’lim muassasalarining o‘quv jarayonini mustaqil tashkil etish huquqiga ega bo‘lishi, xalqaro akkreditatsiyadan o‘tish jarayonlari bunga misoldir. Ba’zi universitetlar, masalan, Toshkentdagi xalqaro universitetlar (Westminster, INHA, Turin) akademik erkinlik tamoyillarini to‘liq tatbiq etib, zamonaviy menejment va pedagogik yondashuvlarni sinovdan o‘tkazmoqda.

Muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari

Akademik erkinlikni amaliyotga tatbiq etish jarayonida qator tizimli muammolar mavjud. Eng avvalo, ba’zi universitetlarda boshqaruvning markazlashganligi saqlanib qolmoqda, bu esa tashabbus va erkinlikni cheklaydi. O‘qituvchilar orasida erkin yondashuvga tayyorlik yetarli darajada emas, bu esa innovatsion pedagogik metodlarni joriy etishda sustkashlikka olib kelmoqda. Bundan tashqari, moliyaviy avtonomiya yetarli darajada ta’minlanmagan, budget mablag‘larini mustaqil taqsimlash vakolati cheklangan holatlarda qolmoqda.

Ushbu muammolarni hal etish uchun quyidagi chora-tadbirlarni ko‘rish zarur:

- Universitet rahbariyatining mas’uliyatini oshirish va ular uchun aniq erkinlik-chegara mexanizmlarini ishlab chiqish.
- O‘qituvchilar va boshqaruv kadrlarini muntazam malaka oshirish orqali erkin va ochiq ta’lim muhitini shakllantirish.
- Ilmiy grantlar va xalqaro loyihalarda ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirish orqali universitetlarning mustaqilligini moliyaviy jihatdan mustahkamlash.

XULOSA

Oliy ta’limda akademik erkinlikni rivojlantirish, zamonaviy ta’lim talablariga javob beruvchi kadrlarni tayyorlashda muhim omil hisoblanadi. Bu borada davlat va jamiyat hamkorligini mustahkamlash, universitetlarni ilmiy-innovatsion markazlarga aylantirish orqali erkinlikni amaliyotga tatbiq etish lozim. Akademik erkinlikning tizimli va bosqichma-bosqich joriy etilishi oliy ta’lim sifatini oshiradi, xalqaro maydonda raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Taxonomy of Educational Objectives, Handbook 1: Cognitive Domain 2nd edition Edition, Benjamin S. Bloom